
Davlat mukofoti sohiblari bilan uchrashuv

Ma'lumki, yoshlar kuni munosabati bilan bir guruh mamlaaatimiz yoshlari turli darajadagi davlat mukofotlari bilan taqdirlandi. Xususan, Rishton o'g'loni Davlat Xavfsizlik Xizmati xodimi Sodirjon Mahmudov Abdullajon o'g'li "MARD O'G'LON " Davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

Yana bir tumandoshimiz «Xoliqov Yo'lchiboy» fermer xo'jaligi boshlig'i Xoliqova Gulira'no Yulchiboy qizi esa «Kelajak bunyodkori» medali bilan taqdirlandi.

Bugun tuman hokimligi majlislar zalida yuksak mukofot sohiblari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Ushbu uchrashuvda tuman hokimi, sektor rahbarlari, hokim o'rinbosarlari, jamoatchilik vakillari ishtirok etishdi.

Tadbirda so'z olgan tuman hokimi barcha yoshlarga davlatimiz rahbari tomonidan berilayotgan e'tibor haqida alohida to'xtalib, yoshlarga davlatimiz rahbari tomonidan berilayotgan bu cheksiz e'tibordan nishona ekanligini ta'kidladi.

Uchrashuv davomida Davlat mukofoti sohiblari tuman hokimining esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

2024-07-02 09:12:39